

ALISHER NAVOIY IJODINING MUSTAQILLIKDAN KEYINGI O'RGANILISHI: YANGI DAVR VA YANGICHA NIGOH

Nurmatova Xumoraxon Dilshod qizi

Farg'ona davlat universiteti 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20050873>

Abstract: Ushbu maqolada mustaqillik yillarida Alisher Navoiy ijodini o'rganishdagi konseptual o'zgarishlar, xususan, shoir asarlarining tasavvufiy-irfoniy mohiyatini tadqiq etish masalalari tahlil qilinadi. Sho'ro davri mafkuraviy tazyiqlaridan xalos bo'lgan navoiyshunoslikning yangi bosqichida Najmiddin Komilov va Ibrohim Haqqulov kabi olimlarning ilmiy qarashlari, "ishqi ilohiy" va "komil inson" konsepsiyalarining talqin qilinishi tadqiqotning markaziy obyekti hisoblanadi.

Annotation:

This article analyzes conceptual changes in the study of Alisher Navoi's work during the years of independence, specifically the research into the Sufi-mystical essence of the poet's works. In this new stage of Navoi studies, freed from the ideological pressures of the Soviet era, the scientific views of scholars such as Najmiddin Komilov and Ibrohim Haqqulov, as well as the interpretation of the concepts of "Divine Love" and the "Perfect Human," serve as the central object of the research.

Kalit so'zlar:

Alisher Navoiy, mustaqillik davri navoiyshunosligi, tasavvuf, irfon, komil inson, ishqi ilohiy, Najmiddin Komilov, Ibrohim Haqqulov, "Lison ut-tayr", hamd va na't, metodologik tahlil.

Keywords:

Alisher Navoi, independence era Navoi studies, Sufism, Irfan, Perfect Human, Divine Love, Najmiddin Komilov, Ibrohim Haqqulov, "Lison ut-tayr", hamd and na't, methodological analysis.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, milliy ma'naviyatimizning ustuni bo'lmish Alisher Navoiy merosini o'rganishda yangi imkoniyatlar ochildi. Sobiq ittifoq davrida hukmron bo'lgan sotsialistik realizm va sinfiylik tamoyillari shoir ijodini biryoqlama, faqat dunyoviy va ijtimoiy-siyosiy nuqtayi nazardan tahlil qilishni taqozo etar edi. Buning natijasida Navoiy asarlarining mag'zi bo'lgan diniy-falsafiy asoslar, islomiy qadriyatlar va tasavvufiy ramzlar "eskilik sarqiti" sifatida chetga surildi yoki noto'g'ri talqin qilindi. Mustaqillik davri navoiyshunosligining asosiy yutug'i — shoir ijodini o'zining asl tabiati, ya'ni Sharq islom madaniyati va irfoniy tafakkuri doirasida tahlil qilish imkoniyati tug'ilganidir. Endilikda Navoiy nafaqat "xalqparvar shoir", balki buyuk mutasavvif, ilohiyot ilmining bilimdoni va ruhshunos adib sifatida namoyon bo'ldi. Bu davrda metodologik yangilanishning boshida turgan N. Komilov va I. Haqqulov kabi olimlar Navoiyning "Xamsa" sidan tortib, "Lison ut-tayr" va lirik merosigacha bo'lgan barcha asarlarini "ilohiy ishq" prizmasi orqali qayta kashf etdilar. Ushbu maqolaning dolzarbligi shundaki, unda mustaqillik yillarida navoiyshunoslikda yuz bergan sifat o'zgarishlari — shoir dunyoqarashidagi tasavvufiy qatlamlarning ochilishi va bu tahlillarning bugungi milliy tarbiya tizimidagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Shoir ijodidagi "komil inson" konsepsiyasi bugungi kunda jamiyatimizning ma'naviy yangilanish jarayonlari bilan hamohangligi nuqtayi nazaridan tahlil etiladi.

Mustaqillik yillari navoiyshunosligidagi eng katta inqilobiy o'zgarish — bu Alisher Navoiy dunyoqarashini islom falsafasi va tasavvufiy ta'limotlardan ayri holda tasavvur qilib

bo'lmashligining e'tirof etilishi bo'ldi. Sobiq tuzum davrida Navoiyni "dindan uzoq", "ateistlarga yaqin" yoki faqat "saroy shoiri" sifatida ko'rsatishga urinishlar o'rnini xolis ilmiy tahlil egalladi.

Professor N. Komilov o'zining "Tasavvuf" va "Xizr chashmasi" kabi asarlarida Navoiy ijodining irfoniy ildizlarini ochib berdi. Olim Navoiyning "Xamsa" dostonlari, xususan, "Hayratul-abror"dagi falsafiy boblarni sharhlar ekan, shoir ilgari surgan "komil inson" g'oyasi bevosita tasavvufdagi Insoni komil tushunchasi bilan bog'liqligini isbotladi. Uning tadqiqotlari natijasida Navoiy qahramonlarining (Farhod, Majnun, Iskandar) xatti-harakatlari faqat insoniy sevgi emas, balki Haq taolaga intilish — haqiqiy ishq bosqichlari sifatida talqin qilina boshlandi.

"Mustaqillik davri navoiyshunosligining tub mohiyatini anglashda professor N.Komilovning 'Xizr chashmasi' asari o'ziga xos metodologik qo'llanma vazifasini o'taydi. Olim shoir dunyoqarashining islomiy asoslarini tahlil qilar ekan, Navoiy uchun Parvardigor — Yaratuvchi, Odam esa — olamni yaratishdan ko'zlangan asosiy maqsad, ya'ni 'maxluqot gultoji' ekanligini ta'kidlaydi. Bu qarash Navoiy ijodidagi 'imon' tushunchasini shunchaki aqida emas, balki dunyoni, Ilohni va o'zlikni bilishga qaratilgan yuksak ma'rifat darajasiga ko'taradi. Sobiq sho'ro davrida shoir asarlarining hamd va na't qismlari, diniy-tasavvufiy boblari 'mafkuraviy yot' deb topilib, qisqartirib nashr etilgani navoiyshunoslikni biryoqlama (ateistik) yo'nalishga burib qo'ygan edi. Biroq istiqloq sharofati bilan shoir asarlarining to'liq matnlari tiklanishi natijasida, Navoiy ijodining kompozitsion butunligi qayta kashf etildi. Bu esa shoirning 'ilohiy ishq' va 'majoziy ishq'ni bir-biriga qarshi qo'ymay, balki ularni bir butunlikda — Insonning Haqqa intilish yo'li sifatida kuylaganini ilmiy isbotlab berdi."

Navoiyshunos olim I. Haqqulov shoir lirikasi va "Lison ut-tayr" dostonini yangicha nigohda tahlil qildi. U sho'ro davrida "majoziy ishq" (dunyoviy sevgi) deb talqin qilingan g'azallarning aslida chuqur ramziy-ma'naviy ma'nolarga ega ekanligini ko'rsatib berdi. Olimning "Navoiyga qaytish" turkumidagi asarlari shoir ijodini "qolip"lardan xalos qildi va o'quvchiga Navoiyning naqshbandiya tariqati vakili sifatidagi ruhiy olamini anglashga yordam berdi. Uning talqinida Navoiy she'riyati — nafsni jilovlash, qalbni poklash va Yaratganga muhabbat qo'yish falsafasidir.

Ibrohim Haqqulning irfoniy qarashlariga ko'ra, Navoiyning "Lison ut-tayr" asaridagi "uzlat eshigi" va "bema'ni dahr" iboralari dunyoviy hirs va yuzaki yashayotgan insonlardan yiroqlashish, ya'ni ruhiy poklanishni anglatadi. Shuningdek, 7 ta borliq darajasining eng oliysi – inson, aynan Hazrati Odam timsolida ilohiy ma'rifatni idrok etuvchi maxluqot sifatida talqin qilinadi. Navoiy "Lison ut-tayr" dostonida: "Kim dedim uzlat eshigin ochqamen, Dahri bema'ni elidin qochqaman", deydi. Bema'ni dahrning odamlaridan ma'ni kutib bo'lmaganidek, ularning avom, ya'ni "ahli suvrat" saviyasida ekanligidan ham albatta ko'z yumib bo'lmaydi. Navoiy ana shunday dunyo va uning vakillaridan yiroqlashish tarafdori. U "Dunyo sori hirs har yamondin ortuq, tark etmak ani kavnu makondin ortuq" deganda ham hirs qo'zg'ovchi va horis, yulg'ich, kazzoblar to'dasiga qo'shuvchi olamni nazarda tutgan. Bu – masalaning bir tomoni. Uning sirliroq ikkinchi jihati yanada muhim. Irfoniy talqinga ko'ra, olamda yetti turli mavjudlik bordir: birinchisi – malak, ikkinchisi – jon, uchinchisi – ma'dan, to'rtinchisi – o'simlik, beshinchisi – hayvon. Mulk olami nihoyasiga yetgach, oltinchi jins o'laroq inson yaratilgan. Insoniy jismlar orasida zohir bo'lgan ilk borlik Hazrati Odam edi deb ta'kidlab o'tgan edi adib.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, mustaqillik yillari o'zbek navoiyshunosligi uchun nafaqat miqdor, balki sifat jihatidan yuksalish davri bo'ldi. Sobiq tuzum davridagi mafkuraviy qoliplar va cheklovlarning parchalanishi natijasida Alisher Navoiy merosini o'rganishda xolislik

va milliy manfaatlar ustuvorlik kasb etdi. Shoir asarlarining tasavvufiy-irfoniy mohiyati, islom falsafasi bilan bog'liqligi va "komil inson" konsepsiyasining ilmiy asoslari Najmiddin Komilov hamda Ibrohim Haqqulov kabi zahmatkash olimlarning tadqiqotlarida o'zining haqiqiy talqinini topdi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Movarounnahr – O'zbekiston, 2009.
2. Komilov N. Xizr chashmasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2005.
3. Haqqulov I. Navoiyga qaytish. 1-kitob. – Toshkent: Fan, 2007.
4. Haqqul I. Lison ut-tayr: Navoiy ijodida dunyo timsoli va talqinlari // kh-davron.uz portali